

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FONETIK TAHLILIGA DOIR

Muqumov Toshqobil Bozor o‘g‘li

SamDChTI o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11316479>

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuz va o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning fonetik tahliliga doir doir ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Fransuz, o‘zbek tili, frazeologik birliklar, tovushlar, qofiyadosh so‘zlar, qofiya, adabiyot nazariyasi.

ON THE PHONETIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN FRENCH AND UZBEK

Abstract. This article presents scientific information on the phonetic analysis of phraseological units in the French and Uzbek languages.

Key words: French, Uzbek language, phraseological units, sounds, rhyming words, rhyme, literary theory.

О ФОНЕТИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ФРАНЦУЗСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ.

Аннотация. В данной статье представлены научные сведения по фонетическому анализу фразеологизмов французского и узбекского языков.

Ключевые слова: французский язык, узбекский язык, фразеологизмы, звуки, рифмующиеся слова, рифма, теория литературы.

Fransuz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar tarkibidagi qofiyadoshlikka fonetik tovushlar ta‘sirini tahlil qiladigan bo‘lsak, misralarda so‘zlarning ohangdosh bo‘lib kelishiga bir xil fonetik tovushlar uyg‘unligining ta‘sirini ko‘rishimiz mumkin. Masalan fransuz tilidagi quyidagi qofiyadosh frazeologik birlikni tahlil qilsak: *Qui a bon voisin, A bon matin* (uy olma, qo‘shni ol). Bu yerda *voisin* va *matin* so‘zlari qofiyadosh so‘zlar bo‘lib, bu yerdagi [ɛ̃n] tovushi ikkala so‘zda ham takrorlanishi oqibatida ohangdoshlik vujudga kelib, misralarning musiqiylikini ta‘minlab qofiya hosil qilgan. Yoki o‘zbek tilidagi quyidagi turg‘un birikmani tahlil qilsak: *Bir kishi ariq qazar, Ming kishi suv ichar* 1– bu frazemada [ar] tovushlarining ikkala qofiyadosh so‘zlarda takrorlanishi qofiyani keltirib chiqarishda asosiy rol o‘ynamoqda. Yana fonetik tahlil jarayonida qofiyadosh so‘zlarning nechta tovushdan, tovushlar jaranglimi yoki jarangsiz, ning shakllanishiga unli tovushning ahamiyati kattami yoki undosh tovushlarning, qofiyadosh so‘zlar harf va tovush jihatdan teng yoki teng emasligi, necha bo‘g‘inli, urg‘uli yoki urg‘usiz kabi jihatlarini e‘tiborga olgan holda tahlil jarayonini olib borish lozim. Masalan:

Un peu de fiel

Gâte beaucoup de miel. (Bir chimdim tuz bir xum asalni buzar)

Bu misol tarkibidagi *fiel* va *miel* so‘zlari qofiyadosh so‘zlar hisoblanib, bu yerdagi qofiyadoshlikka [iel], [ijel] tovushlari sabab bo‘lyapti. Hamda bu so‘zlarda tovushlar va harflar soni teng. Ikkala qofiyadosh so‘z ham ikki bo‘g‘inli, aralash bo‘g‘in [mi-jel, fi-jel] bu so‘zlarga urg‘u tushgan. Qofiyaning shakllanishiga ikkita unli [ie] tovush bitta undosh [l] tovush va bitta mi voyelle ou mi consonne [j] tovushlarining ahamiyati katta. Yoki: *Yaxshi yigit yurt tuzar, Yomon*

yigit yurt buzar – frazemasida *tuzar* va *buzar* soʻzlari oʻzaro qofiyadosh boʻlib kelgan. Bu soʻzlardagi tovushlar (beshta tovush) va boʻgʻinlarning (ikkita boʻgʻin) bir xil miqdorda ekanligi ikki soʻzning oʻzaro qofiyadoshligining asosiy sababi. Yana qofiyadosh soʻzlardagi unli va undoshlarning bir xil miqdorda ekanligi ham taʼsir etgan.

Ce qu'on apprend au berceau

Dure jusqu'au tombeau. (Beshikdan qabrgacha ilm izla)¹.

Bu misolda ham yuqoridagi holat kuzatilgan yaʼni tovush va harflar soni teng. Yana shu holatga eʼtibor qaratish lozimki, qofiyadosh boʻlib kelgan soʻzlar *berceau* va *tombeau* soʻzlarning tovushlar soni ham, harflar soni ham, boʻgʻinlar soni ham oldingi misolimizdagi qofiyadosh soʻzlar kabi teng. Boʻgʻinlar soni ikkita: [tom-beau], [ber-ceau]. Bu misolimizda qofiyadoshlikka eau-[o] unli tovushi asos boʻlib kelyapti. Yuqorida keltirilgan misollarimizdagi qofiyadosh soʻzlar adabiyot nazariyasida toʻliq-toʻq qofiya turiga kiradi. Chunki *au berceau* va *au tombeau*, hamda *fiel* va *miel* soʻzlari bir-biri bilan toʻla ohandoshlik hosil qilgan. Bundan tashqari soʻzlarning faqat baʼzi tovushlarigina ohangdosh boʻlib kelishi mumkin. Bunday holatda och (chala qofiya hosil boʻladi). Masalan :

Attraper un coup

De bambou. (Boshiga gurzi bilan urilgandek).

Bu misolimizda qofiyadosh boʻlib kelgan soʻzlar *coup* va *bambou* soʻzlari tovush hamda harflar soni jihatdan ham teng emas. *Coup*-toʻrtta harf, ikkita tovush [ku:], bir boʻgʻinli boʻlsa, *bambou* oltita harf, beshta tovushdan ikki boʻgʻinli [bam-bu:] boʻlib, soʻzlar oxirida kelgan [u] unli fonema ularning qofiyadoshlik hosil boʻlishiga sabab boʻlyapti. Oʻzbek tilida ham bu kabi qofiyadosh frazeologik birliklarni uchratish mumkin. Masalan: *Oʻz uying* — *oʻlan toʻshaging* bu frazemada ham qofiyadoshlikning och qofiya turi boʻlib, bu yerda faqat ikkinchi shaxs egalik qoʻshimchasi [ing] qofiyadoshlikni keltirib chiqarmoqda. Qofiyadosh soʻzlar esa tovush, harf va boʻgʻin jihatidan teng emas. *Uying* – soʻzida toʻrtta tovush va harf, ikkita boʻgʻin bor. *Toʻshaging* – soʻzida esa yettita tovush, sakkizta harf va uchta boʻgʻin mavjud. Bu soʻzdagi harflar va tovushlar miqdorining teng kelmasligiga [sh] tovushining ikki harf bilan ifodalanishi yaʼni harf birikmasining mavjudligi sabab boʻlmoqda.

Shu oʻrinda aytib oʻtish kerakki, oʻzbek tili nutq tovushlari tizimida uchta harf birikmasi mavjud: [sh], [ch] va [ng]. Oʻzbek va fransuz tillarida bu turdagi qofiyadosh frazeologik birliklar tarkibida koʻplab uchraydi. Masalan, fransuz tilida:

On lui donnerait bon

Dieu sans confession- (yaxshi boʻlsang, yasharsan, nasibangni osharsan). Bu misolda ham *bon* bir boʻgʻinli, uch harf, ikki tovush [bõ] va *confession* toʻrt boʻgʻinli, oʻnta harf va sakkizta tovush [cõ-fe-si-jõ] dan iborat. Bu misolimiz ikki qismli boʻlib har bir qism yetti boʻgʻindan tashkil topgan. Oʻzbek tilidagi mazkur frazeologik birlik ham misol boʻla oladi. Masalan: *Nodon va yalqov*, *Dushman uchun katta ov* . Qofiyadosh *yalqov* va *ov* soʻzlarida harf, tovush va boʻgʻinlar miqdori har xil. *Yalqov* – ikkita boʻgʻin, oltita tovush va harifdan iborat. *Ov* – soʻzi esa bir boʻgʻin, ikki tovush va harifdan iborat. Yuqoridagi misollardan koʻrish mumkinki, oʻzbek tilidagi qofiyadosh frazeologik birliklarda qofiyadosh soʻzlarda harflar soni bilan tovushlar soni koʻp

¹ Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. Oʻzbek xalq maqollari. T.: Sharq. 2005. -B.257

hollarda teng. Fransuz tilida esa ularning miqdori ko'pchilik qofiyadosh turg'un birliklarda teng emas. Bu esa fransuz tilida defton va treftonlarning o'zbek tiliga nisbatan ko'p ekanligi bilan tavsiflanadi. Masalan:

*À qui se lève **matin**,
Dieu prête la **main***

(erta turganga xudo beradi) – ushbu misoldagi qofiyadosh *matin*, *main* so'zlarida harflar soni bilan tovushlar sonining bir xil emasligi ikkala so'zda ham burun tovushi [ɛ̃] ning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Fransuz tilida so'z oxirida kelib talaffuz etilmaydigan —*ecadue*l tovushining mavjudligi ham tovushlar bilan harflar miqdorining teng kelmasligiga olib keladi. Bu holat o'zbek tili uchun xarakterli hisoblanmaydi. Masalan:

*Mieux vaut **ami en voie**
Que **denier en courroie** (yaxshi do'st mehnatga hamdam).*

Bu misolimizda ham qofiyadosh so'zlar tovush va harflar soni jihatdan teng emas. **Voie**-bir bo'g'in, to'rt harf, uchta tovushdan, **courroie** esa ikki bo'g'inli, sakkizta harf, beshta tovushdan iborat. Teng bo'lmaslikning sabablaridan biri yuqorida ta'kidlaganimizdek ikki qofiyadosh so'z tarkibida talaffuz etilmaydigan [e] tovushining mavjudligi.

Ma'lumki bo'g'inlar qanday tovush bilan tugashiga qarab ochi va yopiq turlarga ajratiladi.

Qofiyadosh turg'un birikmalar orasida ham ochiq va yopiq bo'g'in bilan tugagan qofiyadosh so'zlilarini uchratish mumkin. Ochiq bo'g'inli qofiyadosh iboralar. Masalan:

*Si la jeunesse **savait**,
Si la vieillesse **pouvait**. (yoshlar bilganda edi, keksalar qila olganda)*

Bu frazemadagi qofiyadosh so'zlar ochiq bo'g'inlidir. Fransuz tilida ochiq bo'g'inlarni hosil qilishda ko'pincha so'z oxirida talaffuz etilmaydigan tovushlar sabab bo'ladi. O'zbek tilidagi qofiyadosh frazeologik birliklar orasida bu kabi ochiq qofiyadagi frazemalar fransuz tilidagilarga nisbatan kam sonni tashkil etadi. Masalan :

*O'zingdan chiqqan **baloga***

*Qayerga boray **davoga***. Ushbu maqolda qofiyadosh bo'lib kelgan so'zlar tarkibidagi barcha bo'g'inlar ochiq bo'g'inlar : [**ba-lo-ga**], [**da-vo-ga**]. Bu kabi ochi bo'g'inli qofiyadosh frazeologik birliklarni fransuz tilida deyarli har bir so'z turkumi misolida ko'rish mumkin. Lekin o'zbek tilida esa yuqorida ta'kidlaganimizdek kam sonni tashkil etganligi uchun unday emas.

Masalan ot so'z turkumi bilan ifodalangan ochiq bo'g'inli qofiyadosh frazeologik birlik: *Payer **chats** Et en **rats** (yemagan somsaga pul to'lamoq)*. Olmosh so'z turkumi bilan ifodalangan ochiq bo'g'inli qofiyadosh frazeologik birlikka misol: *Aujourd'hui à **moi** Demain à **toi*** (birovning ustidan kulmagin zinhor, sening ham ustigdan kuladiganlar bor) Fe'l so'z turkumi bilan ifodalangan ochiq bo'g'inli qofiyadosh frazeologik birlik: *Si la jeunesse **savait**, Si la vieillesse **pouvait*** (yoshlar bilganda edi, keksalar qila olsa edi) Yopiq bo'g'inli qofiyadosh iboralar: fe'l so'z turkumidagi qofiyadoshliklar orasida :

*C'est à moi à **faire**,
Et à vous **taire**;*

O'zbek tilida ham bu kabi qofiyadosh frazeologik birlik mavjud. Masalan: *Yomon o'zini **bilmas**, O'zgani ko'zga **ilmas***. Ot so'z turkumidagi qofiyadoshliklar orasida: *Qui a du **pain** Nargue le **chagrin*** (qorni to'qning och bilan ishi bo'lmas). Yoki o'zbek tilida: *Yaxshi **qand** yedirar, Yomon*

— *pand*. Sifat soʻz turkumidagi qofiyadoshliklar orasida: *Il n'est riche Qui est chiche*. (xasis boy boʻlmas) Yoki: *Olim soʻzi oz, Oz boʻlsa ham soz* Unli burun tovushlari: [ã], [é], [õ], [oe] asosida hosil boʻlgan qofiyadoshlik. Bu kabi qofiyadosh turgʻun birikmalar oʻzbek tilida uchramaydi, chunki oʻzbek tilida unli burun tovushlari mavjud emas. Shuning uchun faqat fransuz tilidagi misollarni koʻrib chiqamiz: Ot soʻz turkumidagi qofiyadoshliklar orasida, masalan: *De bonne fin De bonne pépin*—(har kim ekkanini oʻrar) Sifat soʻz turkumidagi qofiyadoshliklar orasida: *Bouf saignant Mouton bélant*—(kapkirmi qizigʻida bosish kerak). Feʼl soʻz turkumidagi qofiyadoshliklar orasida, masalan:

Tant prend - Le larron qu'on le pend
yaʼni *Boʻrining yesa-yemasa ogʻzi qon*

Yuqoridagi misollardan koʻrish mumkinki, frazeologik birliklarda qofiyadoshlikni hosil qilishda fransuz tilida burun tovushlari, bir xil tovushlardan tashkil topgan qoʻshimchalarning roli muhim hisoblanadi. Oʻzbek tilidagi qofiyadosh frazeologik birliklarda esa faqat qoʻshimcha shaklidagi tovushlarning ohandosh boʻlib kelishini koʻrishimiz mumkin, buning sababi esa oʻzbek tilida burun fransuz tilidagi kabi unli va undosh burun tovushlarining muhim rol oʻynamasligidadir.

REFERENCES

1. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: ИИЛ, 1961. – 394 с.
2. Гак В.Г. Беседы о французском слове.– М.: МО, 1966. – 241-242 с.
3. Бокадорова Н.Ю. Французская лингвистическая традиция XVIII начала XIX в.
4. Структура знания о языке. –М.: Наука, 1987. – 102-103 с.
5. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. Oʻzbek xalq maqollari. T.: Sharq. 2005. B.257